

TURDIMIRZAYEV Jahongir

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
doktoranti*

Jahongirturdimirzayev1@gmail.com

JALOLIDDIN MUHAMMAD QOINIY VA UNING “NASOYIH-I SHOHRUXIY” ASARI

JALALIDDIN MUHAMMAD QAINI AND HIS WORK “NAYSAIKH-I SHAHRUKHI”

ДЖАЛАЛИДДИН МУХАММАД КАИНИ И ЕГО ТРУД “НАСАЙИХ-И ШАХРУХИ”

Annonatsiya. Ushbu maqolada “hukmdor maslahatchisi” degan nomga sazovor bo‘lgan Jaloliddin Muhammad Qoiniy va uning “Nasoyih-i Shohruxiy” asarining ahamiyati tadqiq qilingan. U Shohrux Mirzo davrida yashagan va uning e’tiborini qozongan. Hirot shahrida muhtasiblik lavozimida faoliyat yuritgan. Jaloliddin Qoiniy huquqshunos, muhaddis va voiz bo‘lgan. Jamiyatda islomiy qadriyatlarni mustahkamlashga intilgan. Turli buzg‘unchi oqimlarga qarshi qat’iyat bilan kurashgan va ularning ko‘plarini to‘g‘ri yo‘lga topishiga sababchi bo‘lgan. “Nasoyih-i Shohruxiy” asarida asosan hukmdorga diniy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, siyosiy maslahatlar berish va adolat tamoyillarini tushuntirish masalalari ilgari suriladi. Mazkur asar Temuriy Shohrux Mirzo davrini yoritishda juda ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Muhammad Qoiniy, “Nasoyih-i Shohruxiy, Shohrux Mirzo, adolat, Hirot, muhtasib.

Аннотация. В этой статье подчеркивается значение Джалалуддина Мухаммада Каини, который заслужил название «советник правителя», и его труда «Насайих-и Шахрухи». Он жил во времена правления Шахрух Мирзо и привлёк его внимание. Он служил мухтасибом в городе Герат. Джалалуддин Каини был правоведом, хадисоведом и проповедником. Он стремился укрепить исламские ценности в обществе. Он решительно боролся с различными деструктивными течениями и помог многим из них найти истинный путь. Труд «Насайих-и Шахрухий» в основном рассматривает вопросы предоставления правителю религиозных наставлений, предоставления политических советов и разъяснения принципов справедливости. Этот труд очень важен для освещения эпохи Тимурида Шахрухи Мирзы.

Ключевые слова: Джалалуддин Мухаммад Каини, «Насайих-и Шахрухи, Шахрух Мирза, справедливость, Герат, мухтасиб.

Annotation. This article highlights the importance of Jalaluddin Muhammad Qaini, who was called the “ruler’s advisor,” and his work “Nasayikh-i Shahruhiy.” He lived during the reign of Shahrukh Mirza and gained his attention. He served as a muhtasib in the city of Herat. Jalaluddin Qaini was a jurist, hadith scholar, and preacher. He sought to strengthen Islamic values in society. He fought resolutely against various destructive currents and helped many of them find the right path. The work “Nasayikh-i Shahrukhi” mainly addresses the issues of providing religious guidance to the ruler, providing political advice, and explaining the principles of justice. This work is very important in illuminating the era of Timurid Shahrukhi Mirza.

Keywords: Jalaluddin Muhammad Qaini, “Nasayikh-i Shahrukhi”, Shahrukh Mirza, justice, Herat, mukhtasib.

KIRISH

Mustaqillik yillarida yurtimizda islom diniga, xususan, ajdodlar hayoti va ilmiy merosiga bo‘lgan katta e’tibor natijasi o‘laroq unutilayozgan qadriyatlar qayta tiklandi, buyuk allomalarimizning nomlari va asarlari ilmiy muomalaga kiritildi, aziz-avliyolarning muqaddas qadamjolari ziyoratchilar bilan gavjum bo‘ladigan obod go‘shalarga aylantirildi. Ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy me’ros tarjima va tahqiq qilinib muomalaga kiritilmoqda. Bu narsa yosh avlodga kelajagini yoritadigan chiroq vazifasini bajarmoqda. Albatta, o‘tmish tariximizni o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz Temuriylar davri tarixisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Turon zaminida 137 yil hukmronlik qilgan Temuriy hukmdorlar ichida Amir Temurdan so‘ng uning o‘g‘li Shohrux Mirzo davrini eng barqaror davr deb atasak yanglishmagan bo‘lamiz. Mamlakatni qirq yildan ortiqroq idora etgan Shohrux Mirzo otasi davridan Huroson o‘lkasini boshqargan. Sohibqirondan so‘ng temuriy shahzodalar o‘rtasidagi toj-u taxt uchun kurashga barham berib davlat poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko‘chiradi. Shohrux Mirzo Amir Temur zabt etgan keng hududlarda hukmronlik o‘rnatish yo‘lida ko‘plab to‘qnashuv va muammolar bilan yuzlashgan bo‘lsa-da, u hukmronligining boshidayoq Hirotni obod qilish va ravnaq toptirishga harakat qilgan.

Shohrux Mirzo hukmdorligi davrida buyuk olimlardan biri bo‘lgan, zamonasining “podshoh-

lar va amirlar maslahatchisi” sifatida tanilgan Jaloliddin Muhammad Qoiniyning o’rni kattadir. Uning munim asarlaridan biri “Nasoyih-i Shohruxiy” (Shohrux uchun nasihatlar) bo’lib, u sisosiy, pand-nasihat asardir. Mazkur asar temuriy Shohrux Mirzo davri uchun ahamiyatli bo’lib, davlatni qanday boshqarish borasida hukmdorga pand-nasihat shaklida yozilgan muhim ahamiyatga ega manba hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Olimning to’liq ismi Jalol ibn Muhammad ibn Ubaydulloh al-Qoiniy, Nasafiy, Buxoriy, Haraviydir [5;15]. U Qoin¹ shahrida tug’ilgan va o’limi Hirot shahrida 838/1435-yili yuz bergan [5;15]. Olimning qaysi yili tavallud topgani haqida manbalarda aniq ma’lumot keltirilmagan.

Jaloliddin Qoinida tug’ilganligi uchun unga Qoiniy, ajdodlari Nasaf va Buxoro shaharlaridan bo’lganligi uchun Buxoriy, Nasafiy, keying hayoti Hirot shahrida kechgani uchun Haraviy tahalluslari qo’shib aytilgan.

O’zining “Tibyan al-Kaboir” nomli asarining muqaddimasida nasabini Najmuddin Umar Nasafiygacha yetkazadi: “Abu Muhammad Jalol al-Milla va ad-din Muhammad ibn Imom Najmuddin Muhammad ibn Shihobuddin Ubaydulloh ibn Husomuddin Husayn ibn Imoduddin Umar ibn Kamoluddin Samsom ibn Shamsuddin Muhammad ibn Imom Najmuddin Umar Nasafiy, rahmatullohi alayh” [5;15].

Uning otasi “Najmuddin Muhammad ibn Mavlono Ubaydulloh ibn Mavlono Husomuddin Husayn bo’lib, o’z davrining mashhur faqihlaridan biri bo’lgan. Bir muddat Madinada imom Muhammad Ansoriy Madaniy huzurida tahsil olgan. Uning ikki ajdodi Mavlono Imoduddin Umar va Mavlono Husomuddinlar ham faqih bo’lib, hanafiy mazhabining yoyilishida muhim hissa qo’shganlar [5;15].

Ilk saboqlarni Qoin shahrida oladi, so’ngra ilm talabida Buxoroga yo’l oladi, keyinchalik Xurosonga qaytib, Hirot shahriga o’rnashadi. Hirotidagi faoliyati davomida u ko’plab ustozlardan saboq oladi, ulardan eng mashhuri Sayyid Husomuddin Muhammad Abdi Samarqandiy (vafoti 807-hijriy) edi. Shuningdek, u keyingi yillarda Ibn Jazariy nomi bilan mashhur muhaddis va qiroat ilmi olimi Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad Jazariydan tahsil oladi va hadis rivoyati uchun ijozatnoma (ruhsat) oladi [5;15].

Bu haqidagi ma’lumot Xondamirning “Habib us-siyar” asarida ham keltiriladi. U quyidagicha: Mavlono Jaloliddin Muhammad Qoiniy dindor voiz va fozil kishi bo’lib, bir necha vaqt Hirotida muhtasiblik mansabida turdi. Hadis aytish bo’yicha ruxsatini shayx Muhammad Jazariydan olgan bo’lib, hamisha o’qitish naqshini hadis toliblari ko’ngliga bitardi [8;479].

Jaloliddin Qoiniy Shohrux hukmronligining dastlabki yillaridanoq uning e’tiborini qozongan. Shohrux Mirzo farmoni bilan u Hirot jome masjidida va’z, xutba va ta’lim bilan shug’ullana boshlagan. Bu haqda Xondamir o’zining asarida ham eslab o’tadi [5;15].

Hanafiy huquqshunos, muhaddis va voiz Jaloliddin Qoiniy keyinchalik Shohrux Mirzo davrida muhtasib² lavozimida faoliyat yuritgan [2;290].

Jaloliddin al-Qoiniy muhtasiblik lavozimiga ma’ruf (yaxshi) va munkar (yomon) ni ajrata oladigan insonlargina tayinlanishi lozimligini takidlaydi. Uning fikriga ko’ra, muhtasib quyidagi to’rt fazilatga ega bo’lishi va ularning har birini qayerda va qanday qo’llashni yaxshi bilishi lozim, ular: bayon (aniq tushuntirish), nasihat (yaxshi maslahat), taqlid (namuna ko’rsatish) va ta’dib (tarbiya berish, jazolash) dir [7;201].

Tarixiy manbalarda Amir Temur davri muhtasiblari haqida batafsil ma’lumotlar kam uchrasa-da shubhasiz, islomiy qadriyatlarini mustahkamlashga intilgan, ayniqsa ichkilikka qarshi keskin kurash olib borgan dindor hukmdorlardan biri Shohruxning siyosatini amalga oshirishda ularning o’rni beqiyos bo’lgan [7;202].

Qoiniy Shohrux tomonidan hijriy 818/1415-1416-yillar ahli sunna mazhabini jonlantirish siyosati doirasida Kuhiston mintaqasiga yuborilgan. Qoiniyga u mintaqadagi buzuq e’tiqodlarni yo’q qilish va shariatni tiklash vazifasi yuklatilgan. Olim ushbu missiyasi haqida shunday deydi: “Men butun mintaqani atigi 11 oy ichida to’lig’icha sunnilikka o’tkazdim” [7;203].

Mavlono Jaloliddin Muhammaddan bir madrasa yodgor qolgan bo’lib, Hirot Jome masjidining janub tomonida joylashgan. Bu madrasa xalq orasida “Madrasai Peshburd” nomi bilan mashhur [8;479].

“Matlai sa’dayn” da Jaloliddin Qoiniy Hirot shahridagi Jafarton qishlog’ida vafot etishi haqida ma’lumot keltiriladi. Shariat bilimlarida olim va voiz, kishilarni shahardan tashqari qochishni

² Muhtasib – shariat hukmlarining bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor.

¹ Qoin – Eronning janubi-sharqida joylashgan tarixiy shahar.

qattiq man qilib yurgan ulug' mavlono, muhtasib Jaloluddin al-Qo'iniy vafot etdi va o'z maskani bo'lgan Jafarton qaryasida dafn etildi [1;54]. Bu qishloq "Habib us-siyar"da "Jug'raton" nomi bilan keladi. Uning bayoni quyidagicha: Mazkur yilda xalq vabo balosidan qochib, shahardan tashqari chiqqanida, mavlono janoblari ularni bu ishdan to'xtatishga uringan ekan. Ammo vabo o'ziga ham yuqib, olamdan o'tgan. Qabri Jug'raton qishlog'ida [1;54].

838/1435-yil Temuriylar davlatida og'ir yil bo'ldi. Hirot shahri va uning tevarak atroflariga vabo kasali tarqadi. Kasallik shu yilning mart-aprel oylarida ko'zga tashlana boshlagan va sha'bon hamda ramazon oylarida yanada kuchayib, og'ir tus olgan edi [4;268]. Shu yili Jaloliddin Qoiniy vaboga chalinib vafot etganini yuqoridagi ma'lumotlardan bilib oldik. Ayni shu yili bu kasallik orqali Hirot shahrining bir qancha olimlari: ulug' valiylerden shayx Zayniddin Abu Bakr al-Xofiliy [8;479], qozi Sadriddin Muhammad [8;478], yetuk olim mavlono Ziyoiddin Nurulloh al-Xorazmiy, mavlono Shamsiddin Muhammad Avhad, shayx Abusaid bin shayx Samsiddin bin qozi Jaloliddin bin Mahmud al-Imomiy, qiroat, she'r va husnixat sohasida nihoyatda mohir bo'lgan Xoja Abdulqodir Go'yandalar [8;479] olamdan o'tdi.

Jaloliddin Qoiniy aqida, tarix, islom huquqi, hadis, ta'lim-tarbiyaga oid birqancha asarlar yozgan, lekin uning asarlariga oid ma'lumotlar XV va undan keyingi asr manbalarida kam uchraydi. Shunga qaramay, turli kutubxona qo'lyozmalari kataloglarida uning bir nechta asarlari qayd etilgan bo'lib, hozirgacha ular nashr etilmagan. Ushbu asarlar quyidagilardan iborat:

1. **"Tibyon al-kaboir"** fors tilidagi asar bo'lib, uning nusxasi Tehron universiteti kutubxonasining Saed Nafisi kolleksiya-sida 429-sonli raqam ostida saqlanmoqda [5;22].

2. **"Arbaun hadis"** asarining nusxalari Tehron universiteti kutubxonasidagi Saed Nafisi kolleksiya-sida 429-kolleksiya, 616-raqam ostida hamda Sulaymoniyadagi Pertev Pasha kutubxonasining maxsus to'plamida 616-raqam ostida saqlanadi [5;22].

3. **"Miftah al-faroiz"** XV asrga oid qo'lyozma bo'lib, to'liq bo'lmagan nusxasi Tehron universitetining Markaziy kutubxonasi fondida, 2920-raqam ostida saqlanadi [5;22].

4. **"Lavomi' al-azkor"** asarining qo'lyozma nusxasi Sulaymoniya kutubxonasidagi Murod Buxoriy kolleksiya-sida, 333-raqam ostida saqlanmoqda [5;23].

5. **"Shuab al-imon"** asaridan ikki nusxa aniqlangan bo'lib, biri Istanbuldagi Aya Sofiya kutubxonasida 4795-raqam bilan, keyingisi Hindistondagi Abul Kalom Ozod kutubxonasida 3261 sonli raqam ostida saqlanmoqda [5;23].

6. **"Nisob al-muallim"** asarining bir nusxasi Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi kutubxonasida 140-raqam ostida, yana bir nusxasi esa Tabrizdagi Naxjavoniy to'plamida saqlanmoqda. So'nggi nusxa 856/1452-yil Sayyid ibn Yusuf ibn Fozil tomonidan Anqarada ko'chirilgan [5;23].

7. **"Mo lo budda"** [5;25] asaridan faqat bitta qo'lyozma nusxasi ma'lum bo'lib, u Eron Milliy kutubxonasida 21093 raqam ostida saqlanadi. Mazkur nusxa Faxriddin Ali Safiyya tegishli tasavvufga doir bir risola bilan birga jamlangan [5;25].

"Nasoyih-i Shohruxiy" tarixiy asarlar ichida bevosita Temuriy hukmdor Shohrux Mirzoga atab yozilgan [6;107]. Ushbu asar 813–820/1411–1417-yillar oralig'ida yozilib, islomiy diniy fanlar asosida musulmon hukmdorning to'g'ri boshqaruvi bo'yicha qo'llanma hisoblanadi [5;25].

Asarning yagona qo'lyozma nusxasi Avstriya Milliy kutubxonasida saqlanib, bu nusxa Shohrux Mirzo kutubxonasiga tegishli bo'lgan. Mazkur nusxa 342 varoqdan iborat. Bu kitob boshida "Sultonul a'zam va xoqonul adl Shohrux Bohodirxon" degan shamsa³ mavjud [5;29].

Muallif kirish qismida asarni yozishda asoslangan manbalar ro'yxatini keltiradi. Ular orasida islom huquqi, fatvolar to'plamlari, Qur'on tafsirlari, hadis to'plamlari, ilohiyotga oid manbalar (Imom G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din") asari kabi va Nizomulmulkning "Siyosatnoma" kabi humdorlar uchun yozilgan nasihatnomalar turkumidagi asarlar mavjud bo'lib, ulardan keng iqtibos keltirilgan [6;108]. Asar va'zgo'y ohangda va diniy ruhda yozilgan bo'lib, bu jihatdan u Elxoniylar davrida yozilgan Ahmad al-Isfahbodiyning "Minhaj al-vuzaro va siroj al-umaro" ("Vazirlar yo'li va amirlar yo'lini yorituvchi chiroq")⁴ nomli arab tilidagi nasihatnoma asariga o'xshaydi [6;108].

³ **Shamsa** — qadimiy qo'lyozmalarda kitobning boshida joylashgan bezakli muhr yoki ramziy tasvir bo'lib, u odatda hukmdorlar, amirlar yoki kutubxona egalari tomonidan kitobning rasmiyligini va uning yuqori maqomini ifodalash maqsadida qo'yilgan.

⁴ Minhaj al-vuzaro va siroj al-umaro 729/1329–1330-yillarda Elhoniylar davlati vaziri G'iyosiddin Muhammadga bag'ishlab yozilgan.

Muallif asarning asosiy mavzularini asos (tamoyil) va maqsadlarga bo'lgan holda yoritadi. Mavzudagi asosiy tamoyillar hukmdorlar uchun shariyatga asoslangan boshqaruv, adolat, rahm-shafqat, siyosat, nasihatlar, hukmdorning niyati, ularning shariat oldidagi mas'uliyati, ilm ahli bilan muloqati va o'z xalqi bilan munosabatlarini batafsil yoritishga bag'ishlanadi.

Asarning maqsadlari doirasida esa avvalo adolat mavzusi yotiladi. Adolat mavzusi keng qamrovda ko'rib, xalqqa adolat qilish, zaiflarga rahm qilish, davlat vakillari va harbiylarga nisbatan munosabat kabi bo'limlarga ajratiladi. Shuningdek, hukmdorlar va ularning maslahatgo'ylari uchun nasihatlar, ularning diniy vazifalari va dunyo-oxirat yaxshiligi uchun qilishlari lozim bo'lgan qoidalar bayon etilgan. Umuman olganda, olim hukmdorning adolat qilishi borasida insonlarning biror toifasini nazardan chetda qoldirmaydi [5;7-8-9].

Kitobda shariat yo'li bilan jang qilish, o'ldirish, asir olish, talon-tarojlik va boshqa harbiy faoliyatlar bo'yicha hukmlar ham keltirilgan. Muallif keltirib o'tgan nasihatlariga Qur'oni karim, hadisi sharif va ulug'larning hayotidan misollar keltiradi.

Umuman olganda, bu asar asosan hukmdorlarga diniy yo'l-yo'riq berish, siyosiy maslahatlar ko'rsatish va adolat tamoyillarini tushuntirish uchun yozilgan ilmiy-nazariy qo'llanmadir.

“Nasoyih-i Shohruxiy” Temuriylar davrida Xuroson, ayniqsa Hirotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va diniy holatlar haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlarga ega asardir.

Asarning yagona nusxasi maxsus ravishda hukmdor kutubxonasi uchun ko'chirilib, Shohruxning shaxsiy foydalanishi uchun yozilgan. Bundan kelib chiqadiki bu asar keng omma uchun mo'ljallanmagan [6;108].

Asarning Shohrux siyosatiga qanchalik ta'sir qilganini aniq aytish qiyin. Biroq, bu asar Shohruxning 813/1411-yilda turkiy-mo'g'ulcha “to'ra”⁵ dan voz kechib, islomiy shariatga asoslangan boshqaruvni qabul qilgani haqidagi rivoyatlar bilan mos keladi. Muallif bu asar orqali Shohrux Mirzoga islom podshohi sifatidagi mavqeiga mos ravishda qanday boshqaruv yuritishi kerakligini ko'rsatmoqchi bo'lgan [6;109].

Ibn Arabshoh Shohruxning yasoq⁶ qonunlarini bekor qilib, islom shariati qonunlarini joriy qilishni

amr qilganini yozsada, lekin u bunga ishonmaydi. Uning nazdida Chingiz qoidalari temuriylar uchun muayyan bir din shakliga kirib, chinakam e'tiqodga aylanib qolgan edi [3;399]. Ibn Arabshohning shubha bilan qaragan fikrlariga qaramay, Shohrux ushbu nasihatlarining ayrimlarini jiddiy qabul qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas [6;110].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, mavlono Jaloliddin Muhammad Qoiniy jamiyat rivoji yo'lidagi hizmatlari kattadir. U ham olim ham davlat mansabdori sifatida hukmdor bilan yonmayon jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashgan. Og'ir kunda, yurtga vabo tarqagan vaqtda ham xalq bilan birga bo'ladi, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, o'zi ham shu kasallik qurboni bo'ladi.

“Nasoyih-i shohruxiy asari esa shaxsan hukmdor uchun yozilib, asarda adolat, rahm-shafqat, xalqning turli tabaqalari bilan bo'ladigan munosabatlar yoritib o'tiladi. Asarda hukmdor uchun davlat boshqaruvida kerakli maslahatlar berib o'tiladi. Chingizxon davridan amalda bo'lib kelgan yasoq qonunlarini bekor qilinishida olimning va uning asarining o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. II jild. – 849 b.
2. Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy. Mujmali Fasihiy. Tarjima, kirish, izohlar va ko'rsatkichlar: D. Yusupova. Toshkent: Fan, 2018. – 542 b.
3. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. Toshkent: Fan, 2019. – 511 b.
4. İsmail Aka, Mirza Şahruxh: Timur'un Hükümdar Oğlu, Uluğ Bey'in Babası (1405–1447), İstanbul: Kronik Kitap, 2022, 308 s.
5. Jalol ibn Muhammad Qoiniy. Nasoyih-i Shohruxiy. G'ulomreza Amirhoniy tahqiqi asosida. Tehron: Yozma Meros Tadqiqot Instituti (Muassasai Pajooreshi-ye Miras-e Maktub), 2023. – 413 b.
6. Maria Eva Subtelny. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill, 2007. – 439 b.
7. Musa Shamil Yüksel, Timuriylarda Din-Devlet İlişkisi, Doktora Tezi, Ege Üniversitesi, İzmir, 2007; Prof. Dr. İsmail Aka, İzmir, 2007. S.202.
8. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – Bobur Xalqaro Jamoat Fondi. – 1248 b.

5 **To'ra** – turkiy-mo'g'ul davlatchiligida urf-odatlariga asoslangan qadimiy qonun va tartib-qoidalar majmuasi.

6 **Yasoq qonunlari** – bu Mo'g'ul imperiyasi davrida Chingizxon tomonidan tuzilgan qonunlar to'plamidir. Yasoq qonunlari keyinchalik boshqa turkiy va musulmon davlatlar qonunchiligiga ham ta'sir ko'rsatgan.